



O‘SIMLIKLARGA AGROEKOLOGIK OMILLARNING TA’SIRI

Xolov Y. D

Buxoro davlat universiteti

Xamidova N. B

Jondor tumani 32-sonli maktab

Annotation: *This article discusses the important role of various representatives of the flora of Uzbekistan in the national economy, in particular, the growing number of global buyers of fruits and vegetables grown in the hills, fields and mountains of our country.*

Kalit so‘zlar: *O‘simliklar, O‘zbekiston florasi, sho‘r tuproqlar, Buxoro vohasi, elluvial-gidromorf, elluvial - avtomorf va elluvialli-kseromorf.*

Yurtimiz o‘simlik dunyosi g‘oyat xilma-xil. Ular orasida tibbiyot ilmining sultoni Abu Ali ibn Sino zamonidan beri kishilar dardiga darmon bo‘lib kelayotgan shifobaxsh turlar ham ko‘pchilikni tashkil qiladi. Qishloq xo‘jaligida yetishtiriladigan madaniy o‘simliklarning ahamiyati haqida esa alohida e’tirof etish zarur. Xususan, bugun yurtimiz qir-adirlari, dala va tog‘larda yetishtirilgan meva hamda sabzavotlarning dunyo miqyosidagi xaridorlari kun sayin ortib boryapti.

O‘zbekiston o‘simliklar dunyosining xilma-xil vakillari bugun mamlakat xalq xo‘jaligida muhim ahamiyatga ega. So‘nggi yillarda O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Botanika institutida olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, yurtimizda 166 oilaga mansub 4500 ga yaqin yuksak o‘simlik turlari borligi ma’lum bo‘ldi.

Bularning aksariyat qismini qoqio‘tdoshlar (260 ga yaqin tur) karamdoshlar, yalpizdoshlar, sho‘radoshlar, loladoshlar, chinniguldoshlar, govzabondoshlar, yoronguldoshlar hamda ra‘nodoshlar kabi yirik oilalarning vakillari tashkil etadi.

O‘zbekiston florasi paydo bo‘lishi, tarqalishi, tur, turkum va oilalarining umumiy o‘xshashligi jihatidan Markaziy Osiyodagi boshqa mamlakatlar, xususan, Eron, Afg‘oniston o‘simliklar dunyosiga juda yaqin turadi. O‘zbekiston florasi uzoq tarixga ega. Paleobotanik tadqiqotlar respublika xududida quruqlikdagi yuksak o‘simliklarning (ksilofitlardan tortib) barcha evolyutsion davrlarga oid o‘simlik qoldiqlari borligini ko‘rsatdi.

Hatto hozirgi Qizilqum cho‘llaridan bir vaqtlar bu yerlarda o‘sgan xurmo, chinor, terak kabi daraxt va butalarning qoldiqlari topilgan.

O‘zbekistonda o‘simliklar o‘smaydigan joy yo‘q. Ularni tekislikdagi qumli cho‘llardan tortib, qorli baland tog‘largacha bo‘lgan turli relyef va tuproq sharoitida uchratish mumkin. O‘zbekiston o‘simliklarning tarqalishini yoritish uchun tavsiya etilgan 4 tik (vertikal) mintaq (cho‘l, adir, tog‘, yaylov) asos qilib olindi. Har bir mintaq o‘ziga xos relyef, iqlim, tuproq va o‘simliklar dunyosiga ega.

Yurtimiz tabiatida madaniy o‘simliklar alohida o‘rin egallaydi. Dala ekinlari – paxta, don, poliz ekinlari, yo‘l chetlari, ariqlar bo‘ylari, sug‘oriladigan yerlar atrofi hamda hovlilarda ekilgan manzarali daraxtlar atrofga o‘ziga xos betakror manzara baxsh etadi.



Shuningdek, tibbiyot va tabobatda qator dorivor giyohlardan unumli foydalaniladi. Masalan, oddiy gazanda, gulxayri, zubtutum, dalachoy, bo'yimodron kabi o'simliklar O'zbekistonning deyarli barcha viloyat va tumanlarida tog'li va zax yerlarda, yo'l yoqalarida, butazorlarda, uy atrofi, ekinzorlarda uchraydigan o'simliklar sirasiga kiradi. Ularning barg, ildizlaridan dori sifatida foydalaniladi. Bu giyohlar o'z tarkibida S, K1, V2 vitaminlari, karotin, pantoten kislota, kraxmal, qandlar, organik kislotalar, saponinlar, achchiq, oshlovchi modda va boshqalarni saqlaydi va qator kasalliklarga shifo hisoblanadi.

O'simliklar olamiga turli xil ekologik omillar jumladan agroekologik omillar ta'sir kursatadi. Jumladan, sho'rangan tuproqlarga qarshi kurashish, sug'oriladigan yerlarning meliorativ va ekologik holatini yaxshilashga qaratilgan chora- tadbirlarni ilmiy va amaliy jihatdan asoslash ko'pchilik olimlar va mutaxassislar tomonidan amalga oshirilgan Mamlakatimizda sho'r tuproqlarning meliorativ va ekologik sharoitlarini yaxshilash tadbirlarini o'rganish va ishlab chiqish bo'yicha tadqiqotlar olib borishi bilan birgalikda sho'r tuproqlarda yetishtirilgan o'simliklar hosildorligini oshirish borasida ko'pgina olimlar har xil vegetatsion va dala eksperimental tajribalari o'tkazganlar va sho'rlanishga chidamli g'o'za navlarini yaratish ishlarini bajarganlar .

Mamlakatimizning vodiy va vohalarida, shu jumladan, Buxoro vohasida tarqalgan sho'r tuproqlarning meliorativ va ekologik holatini yaxshilash, g'o'za va boshqa ekinlarning hosildorligini oshirish tuproqshunoslik, genetika, seleksiya, agronomiya, ekologiya va boshqa fanlarining eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

Respublikamizda sho'r tuproqlarga qarshi kurashish uchun ularning genezisi, geografiyasi va melioratsiyasi nazariy va amaliy jihatdan ko'p yillar davomida bosqichma-bosqich o'rganilib tahlil etilmoqda.

Buxoro vohasida tarqalgan sug'oriladigan o'tloqi alluvial, sur tusli qung'ir va cho'l qumli tuproqlarning sho'rlanishi va ularning meliorativ holatini optimallashtirish hamda ularda g'o'zani parvarishlash ishlari umumlashtirilgan holda tahlil etilgan. Mamlakatimizning cho'l mintaqasida, yuqorida ko'rsatilgan va boshqa tuproqlarning xususiyatlari N.V.Kimberg (1974) tomonidan atroflicha o'rganilgan, tasnif qilingan va ularning asosiy diagnostik belgilari va tasnifi yangi, genetik-geografik ma'lumotlar bilan to'ldirilgan. Undan tashqari, mamlakatimizning cho'l mintaqasida keng tarqalgan sug'oriladigan tuproqlarning to'liq tasnifi ham ishlab chiqilgan. Shu jumladan, sug'orish va grunt suvlarning tuproqlar namlanishiga ta'siri, elluvial-gidromorf, elluvial - avtomorf va elluvialli-kseromorf qatorlar e'tiborga olingan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yoqub Xolov, ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ СОСТОЯНИЕ ПОЧВ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ, ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz): Том 8 № 8 (2021): Maqola va tezislar (buxdu.uz)
2. Yoqub Xolov, Влияние типов почв и уровня засоления на некоторые физиологические показатели хлопчатника, ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz): Том 8 № 8 (2021): Maqola va tezislar (buxdu.uz)
3. Yoqub Xolov, СОЗДАНИЕ МОДЕЛИ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ЗЕМЛЕДЕЛИЯ НА РАЗЛИЧНЫХ СТРУКТУРАХ ПОЧВЕННОГО ПОКРОВА, ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz): Том 8 № 8 (2021): Maqola va tezislar (buxdu.uz)



4. Yoqub Xolov, Рост и развитие растений сорта хлопчатника и дурагая в неблагоприятных агроэкологических условиях Бухары , ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz): Том 8 № 8 (2021): Maqola va tezislar (buxdu.uz)
5. Yoqub Xolov, В ПОЧВАХ ВУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ. О НОЧНЫХ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ПРОЦЕССАХ , ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz): Том 8 № 8 (2021): Maqola va tezislar (buxdu.uz)
6. Yoqub Xolov, ВЛИЯНИЕ НЕБЛАГОПРИЯТНЫХ АГРОЭКОЛОГИЧЕСКИХ УСЛОВИЙ БУХАРСКОГО ОАЗИСА НА МЕЖУЗЛОВОЕ РАССТОЯНИЕ СТЕБЛЯ У СОРТОВ ХЛОПЧАТНИКА И ИХ ГИБРИДНЫХ РАС , ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz): Том 8 № 8 (2021): Maqola va tezislar (buxdu.uz)
7. Yoqub Xolov, ОРГАНИЗАЦИЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИХ СЕМИНАРОВ ПО ВЫРАЩИВАНИЮ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОЙ ПРОДУКЦИИ В БУХАРСКОЙ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ СОЛЕННОЙ ЗЕМЛЕ. , ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz): Том 8 № 8 (2021): Maqola va tezislar (buxdu.uz)
8. Yoqub Xolov, О МЕТОДИКЕ НАБЛЮДЕНИЯ ЗА ВЛИЯНИЕМ ЗАСОЛЕННЫХ ПОЧВ НА АНАТОМИЧЕСКОЕ СТРОЕНИЕ ЛИСТЬЕВ ХУМНИКА БУХАРСКОГО ДУБА , ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz): Том 8 № 8 (2021): Maqola va tezislar (buxdu.uz)
9. Yoqub Xolov, Некоторые комментарии об экологическом состоянии почв Бухарской области , ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz): Том 8 № 8 (2021): Maqola va tezislar (buxdu.uz)
10. Yoqub Xolov, Изучить солеустойчивость хлопчатника на вновь освоенных пустынных песчано-солончаковых почвах Бухарского оазиса. , ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz): Том 8 № 8 (2021): Maqola va tezislar (buxdu.uz)
11. Yoqub Xolov, Изучить солеустойчивость хлопчатника на вновь освоенных пустынных песчано-солончаковых почвах Бухарского оазиса. , ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz): Том 8 № 8 (2021): Maqola va tezislar (buxdu.uz)
12. Yoqub Xolov, ТЕХНОЛОГИЯ ВОЗДЕЛЫВАНИЯ ХЛОПЧАТНИКА В СИЛЬНОЗАСОЛЕГШИХ ЛУГОВО-АЛЛЮВИАЛЬНЫХ ПОЧВАХ БУХАРСКОГО ОАЗИСА , ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz): Том 8 № 8 (2021): Maqola va tezislar (buxdu.uz)
13. Yoqub Xolov, СОЛЕУСТОЙЧИВОСТЬ ХЛОПЧАТНИКА В АЛЛЮВИАЛЬНОЙ ПОЧВЕ ОРОШАЕМОГО ТРАВА-БУХАРСКОГО ДУБА , ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz): Том 8 № 8 (2021): Maqola va tezislar (buxdu.uz)
14. Yoqub Xolov, ИЗУЧЕНИЕ ИЗМЕНЕНИЙ НЕКОТОРЫХ ЦЕННЫХ ПРИЗНАКОВ СОРТОВ ХЛОПКА НА БУХАРСКИХ ВОЛССКИХ СИЛЬНЫХ ЗАСОЛЕННЫХ ПОЧВАХ , ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz): Том 8 № 8 (2021): Maqola va tezislar (buxdu.uz)
15. Yoqub Xolov, ЭКОФИЗИОЛОГИЧЕСКИЕ ВЛИЯНИЯ ДЕФИЦИТА ВОДЫ НА ХЛОПОК , ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz): Том 8 № 8 (2021): Maqola va tezislar (buxdu.uz)